

## MUSTAQILLIK YILLARIDA TARJIMACHILIK TARAQQIYOTI

**Abduxoliqova Zebo O‘tkirovna**

**Annatatsiya:** *adabiyotning asosiy xususiyatlaridan biri insonshunoslikdir, shu bois badiiy asarlar davrlar osh turli xalqlarning asarlarini o‘qish o‘rganishga imkon yaratilgan. Buning asosida tarjima asarlar asosida o‘qish, tahlil etish an’anasi shakllanib keldi. Tarjimachilikning o‘z tarixi, taraqqiyoti, badiiy qonuniyatlari mavjud. Maqola doirasida ana shu tushunchalarning mustaqillik yillariga kelib, yangi bosqichga ko‘tarilganligini, uning ijobiy tamoyillarini tahlil qilishga jazm etilgan.*

**Kalit so‘zlar:** *tarjimachilik, interpritatsiya, ijodkor, badiiylik, matn.*

## ПЕРЕВОД В ГОДЫ НЕЗАВИСИМОСТИ ПРОГРЕСС

**Аннотация:** *одной из основных характеристик литературы является антропология, поэтому художественные произведения созданы как возможность читать и изучать произведения разных народов. На основе этого сформировалась традиция чтения и анализа переводных произведений. Перевод имеет свою историю, развитие и художественные законы. В рамках статьи предполагается проанализировать положительные начала этих концепций, которые за годы независимости поднялись на новый уровень.*

**Ключевые слова:** *перевод, интерпретация, автор, художественность, текст.*

## TRANSLATION IN THE YEARS OF INDEPENDENCE PROGRESS

**Annotation:** *one of the main characteristics of literature is anthropology, therefore, artistic works have been created as an opportunity to read and learn the works of different peoples. Based on this, the tradition of reading and analyzing translated works was formed. Translation has its own history, development, and artistic laws. Within the framework of the article, it is intended to analyze the positive principles of these concepts, which have risen to a new level by the years of independence.*

**Key words:** *translation, interpretation, creator, artistry, text.*

Xalq hayotining burilish pallalarida ijtimoiy-siyosiy, madaniy-ma'rifiy, iqtisodiy-ma'naviy sohalarida tub o‘zgarishlar kuzatiladi. Millat ko‘zgusining asosi bo‘lgan adabiyot ham bunday sharoitda jiddiy o‘zgarishlarga uchraydi. 90-yillarda jamiyatdagi erkinlik badiiy adabiyot va tarjimalarni ham keskin o‘zgarishiga sabab bo‘ldi. Bunday holat, ya’ni shakliy-

mundarijaviy izlanishlar mustaqillikning qo‘lga kiritilishi tufayli milliy tafakkurda paydo bo‘lgan o‘zgarishlar bilan bog‘liq.

Mamlakatimiz qo‘lga kiritgan mustaqillikdan so‘ng ko‘plab sohalarga, xususan madaniyat va adabiyotni o‘rganishga qiziqish kuchaydi. Shu jumladan, xorijiy mamlakatlar tili va adabiyotiga ham e‘tibor kuchaydi. Keng miqyosdagi xalqaro aloqalar jahon madaniyatini yanada chuqurroq bilish, umuminsoniy qadriyatlardan bahramand bo‘lish uchun qulay zamin yaratdi. Jahon xalqaro madaniy va ma‘naviy boyliklari bilan tanishish esa o‘z milliy merosimizni munosib baholash imkonini kengaytiradi. Bu borada badiiy asar tarjimalarining o‘rni ham beqiyosdir. Har bir xalq adabiyoti boshqa xalqlar adabiyoti bilan aloqada rivojlanib kelgan. Tarixga nazar tashlasak, biror bir xalq madaniyatini boshqa xalqlar madaniyatining ta‘siridagi «sof» rivojlanganligini uchratmaymiz. O‘zbek xalqining madaniyati, ma‘naviyati, adabiyoti ham uzoq tarixiy davrlar davomida Sharq va G‘arb ma‘rifatidan bahramand bo‘lgan holda rivojlanib kelganligini kuzatish mumkin.

Aytish joizki, bizning ajdodlarimiz juda qadim zamonlardan boshlab tarjimadan foydalanib kelganlar. Tarjimashunoslikning fan sohasi sifatida qaror topishi bilan uning tarmoqlari, ya‘ni tarjima tarixi, tarjima nazariyasi va tarjima tanqidi ham rivojlandi va jahon adabiyotidagi bu an‘anlarni o‘zida mujassamlashtirib, rivojlanib bormoqda. Bu tushunchalarning va nazariy qarashlarning barchasi badiiy tarjima xususiyatlarini o‘rganish aso‘ida yuzaga kelganligini ham qayd etish lozim. Tarjima nazariyasi ikki til orasidagi qiyosiy tahlildan iborat bo‘lib, bir tildan ikkinchi tilga amalga oshirilayotgan tarjimaning hamma tur va ko‘rinishlarini qamrab oldi.

Keyinchalik esa tarjimada lisoniy (lingvistik) tarjimashunoslik va badiiy tarjimashunoslik yo‘nalishlari paydo bo‘ldi. Tarjimani faqat lisoniy yoki faqat badiiy yo‘nalishda o‘rganish durustroq samara bergan emas. Shuning uchun ham, har ikki yo‘nalishni birlashtirgan lisoniy-badiiy tadqiqotlar keyingi yillarda yanada takomillashib borayotganligidan dalolat beradi.

Tarjimashunoslik fani adabiy-estetik jarayonga ta‘sir etib, adabiy tanqidning tarkibiy qismi hisoblangan tarjima tanqidini vujudga keltirdi. Buning natijasida tarjima va vatan adabiyoti, tarjima va ta‘sir, tarjima va badiiy til, tarjimon mahorati va uslub masalalari keng va chuqur o‘rganiladigan bo‘ldi. Bularning hammasi tarjimashunoslik o‘zbek adabiyotshunosligi fani taraqqiyotiga sezilarli ta‘sir etganligi natijasida uning ufqlari ham kengayganligini, ayniqsa, qiyosiy adabiyotshunoslik sohasi bilan o‘zaro ma‘lum ma‘noda birlashib, bu yo‘nalishning rivojiga o‘z ta‘sirini ko‘rsatdi. Hozirgi kunda ham mustaqil O‘zbekistonda milliy madaniyatimiz, bir tomondan, qadimiy boy milliy qadriyatlarimizdan oziqlanib, rivojlanib kelayotgan bo‘lsa, ikkinchidan, jahon madaniyatining umuminsoniy qadriyatlaridan ta‘sirilanib, shakllanib, rivojlanib borayotganligini kuzatish mumkin.

Darhaqiqat, biz har bir milliy madaniyatning yashashi va ravnaqi uchun tarixiy zarurat sanalgan millatlararo aloqalar avj olayotgan davrda yashamoqdamiz. Jamiyat rivojining ushbu bosqichida ijtimoiy-gumanitar fanlar, jumladan, adabiyotshunoslik mavqeining oshib borishi badiiy ijod va madaniyat sohalari qatorida ijtimoiy ong rivojiga ham ta‘sir o‘tkazmoqda. Bu holat esa adabiyotlararo aloqalar va ta‘sir masalalariga ham daxldordir. Turli ko‘rinishdagi adabiy aloqalar esa barcha davrlarda adabiyotning yashashi va taraqqiyoti uchun muhim

sanaladi. Shu ma'noda, badiiy asarlarning shaxs va jamiyat ma'naviy kamolotida tutgan o'rni va ahamiyatiga munosib baho berish, yaratilajak asarlarning barkamol saviyada bo'lishi, buning uchun jahon adabiyoti va adabiyotshunoslik an'alarini o'rganish, o'zlashtirishni ham talab etmoqda.

«Agar tarjima bo'lmaganida, milliy madaniyatlar va insoniyatning buyuk daholari bunyod qilgan o'lmas fan va san'at obidalari bir-birlari bilan abadiy uchrashmaydigan qoyalar va inson oyog'i etmaydigan orollar shaklida yakkalanib qolgan bo'lardi» [1, 3-bet]. Shuning uchun ham ma'lum bir xalqning san'ati yoki adabiyotini olamga mashhur qiladi. Shu nuqtai nazardan, braziyalik yozuvchi Paulo Koeloning «Alkimyogar» romani dunyo kitobxonlari tomonidan sevib o'qilayotgan asarlar qatoridan o'rin olganligi sir emas. U qisqa vaqt ichida 120 dan ortiq tilga tarjima qilindi. «Tarjima yo'li bilan milliy madaniyatlar bir-birlarini boyitadi. Ijtimoiy hayotning qaysi bir jabhasiga qaramang, u erda katta tarjimaning hayotbaxsh ta'sirini ko'rasiz. Tilda, tafakkurda, madaniy-adabiy hayotda, san'atda-hamma joyda uning o'ziga xos ta'siri sezilib turadi. Tarjima, ayniqsa, so'z san'ati bo'lgan badiiy adabiyotda katta o'rin tutadi» [1, 6-bet].

Tarjima orqali xalqlarning adabiyoti, tafakkur tarzi, tarixi, madaniy va ma'naviy olami bilan tanishamiz. Minglab kitobxonlar qalbini to'lqinlantirgan, insonni yashashga, hayotga undaydigan asarlardan biri Paulo Koeloning «Alkimyogar» asarini o'zbek tiliga o'girilishi ham bejiz emas. Asar uch munaqqid Ozod Sharafiddinov, Aziz Said, Ahmad Otaboevlar tomonidan tarjima etildi. Tarjimonlarning o'ziga xos badiiy mahorati, asarning rus tilidagi portugal tilidan A. Bagdanovskiy tarjimasi asosida qiyosiy o'rganish, har uchala tarjimonning badiiy mahoratini ko'rsatish orqali, bugungi tarjimachilik taraqqiyotini, uning yutuqlarini izohlash va tahlil qilish zaruratini tug'dirdi. Bu esa o'zbek adabiyotidagi tarjimachilik jarayonidagi o'zgarishlarni ham tahlil qilish imkonini beradi.

Tarjima nazariyasining asoschilaridan biri professor G'.Salomov yozadi: «Ma'lumki, tarjima tillar, adabiyotlar, didlar uchrashuvigina emas, balki tarixan tarkib topgan milliy va adabiy an'alarining ham duchlashuvi, uyg'unlashuvi mahsuli. Mana shu uchrashuvda turli adabiy mayllar mahsullarining baholanishi va talqini sodir bo'ladi. Ana shundan moslashtirish mayli zuhr eta boshlaydi. Moslashtirish mayli ongli ravishda ham, beixtiyor, ya'ni tarjimonning xohishidan tashqari ham sodir bo'lishi mumkin» [2, 124-bet]. Badiiy tarjima shunday san'atki, u bir tilda yaratilgan asarni boshqa tilda so'zlovchi kitobxonlarga etkazar ekan, o'girilayotgan asar asliga mos ekanligiga kafil bo'lmog'i darkor. Har bir san'at na'munasi o'zi bunyod etilgan tilda, ya'ni asl nusxasidagina «mutloq to'g'ridir», - degan qarash ham mavjud.

Tarjima qilishdan maqsad asl nusxani egallash, saqlash va etkazishdir, lekin o'z ma'nosiga ega bo'lmagan yangi asar yaratishdan iborat emas. Shuning uchun tarjimonning maqsadi qayta yaratish deb qaraladi. Tarjima jarayonida bir tilning materiali o'rnini boshqa tilning materiallari egallaydi, binobarin, tilga aloqador barcha badiiy vositalarni tarjimonning o'zi, o'z ona tilida yangidan yaratadi. SHunday qilib, til jozibasida tarjima chinakkam o'z xususiyatini qaytadan namoyon qiladi.

Badiiy tarjima nusxasi ko‘chirish emas, balki interpretatsiyadir (lotincha interpretatio – so‘zidan olingan bo‘lib, «tushuntirish, talqin qilish» ma‘nolarini beradi). Tarjimonning estetik e‘tiqodi, uning ixtiyoridan tashqari, tarjimada iz qoldiradi. Psixologik nuqtai nazardan tarjima jarayonida analiz va sintez bosqichlari voqe bo‘lib turadi. Bu bosqichlarning muntazam ketma-ket sodir bo‘lishi shart emas, ular beixtiyor intuitiv ravishda yuz beradi. Ammo tahlil ish paytida yuz beradi va tarjimaning yuzaga kelishiga imkon yaratadi.

«Har bir jabhaga yangilanish nafasi kirayotgan va milliy ma‘naviyatimizni yuksak darajaga ko‘tarish dolzarb masalasi hal qilinayotgan hozirgi davrda tarjimonlardan jahon adabiyoti durdonalari namunalarini aks ettirgan asliymonand tarjima asarlarini yaratish talab qilinmoqda. Asliymonand tarjimaga erishish uchun esa asliyat-badiiy estetik qiymati, ikki xil lisoniy vositalarning lug‘aviy muvofiqliklari hamda asliyat mansub bo‘lgan xalqlarning moddiy, ma‘naviy, siyosiy va iqtisodiy hayoti bilan bog‘liq omillar tarjimada to‘laqonli aks ettirishi lozim» [3, 191-bet].

Keyingi yillarda tarjimaga jiddiy e‘tibor qaratilayotgani ham bejiz emas, chunki dunyo xalqlarining nodir durdonalarini tarjima etish orqali o‘sha xalqlar badiiy asarlarining shakllanish jarayonini, undagi o‘zgarishlarni inson olamidagi turli xil qirralarni yoritish, talqin etish an‘analari ham o‘rganiladi [4]. Jahon adabiyotidagi bu kabi talqinlar esa, keyinchalik ma‘lum bir xalq adabiyotining o‘zgarishiga, uning etakchi tomonlarini badiiy talqin uchun asos qilib olinishiga imkoniyatlar yaratadi. Inson tafakkuridagi turfa xil ziddiyatlar talqinini his etish bilan bir qatorda uning murakkab qirralarini ham anglaydi [5].

Tarjimashunoslik turli ishlar tutashgan joyda paydo bo‘ladi. Chunki tarjima jarayonida ikki madaniyat, ikki xil milliy-uslubiy xususiyat, ikki xil to‘qnash keladi [6]. Tarjimon ana shu to‘qnashuvlar ichida ijod qilib, «uchinchi bir adabiyot»ni yaratadi. Bu milliy adabiyotlarni bog‘laydigan ko‘prik bo‘lib, unda ikki xalq ruhi aks etadi [7]. Chunki tarjimon tilmocho yoki kosib emas, san‘atkor degan xulosaga kelindi. «Badiiy tarjima – qayta yaratish san‘ati» degan qoida qabul qilindi. Tarjimada ana shu ijodiylik o‘ziga xos tahliliy o‘rganish davri bilan bog‘lanib ketishini chex olimi Irji Leviy nazariy jihatdan tahlil qilib yozadi: «Badiiy tarjimada tarjimon mutloq «xolis» bo‘lishi mumkin emas, tarjimon ijodkor sifatida «o‘zligini namoyon etadi», u asarga aralashadi, uning mazmunini talqin (interpretatsiya ) etadi» [8, 5-bet], degan fikrni dalillaydi.

Tarjimaning eng xarakterli tomonlaridan biri ham, uning boshqa til vositalari bilan qayta yaratishdan iborat ijodiy jarayon, so‘z san‘ati ekanligidir. Shu nuqtai nazardan qaraganda, balet ham san‘at, ammo so‘z san‘ati emas, u erda umuman nutq ishtirok etmaydi ham, muallifning muddaosi, asarning g‘oyasi, balerinaning mahorati - bular hammasi musiqa, raqs, harakatlar bilan ifoda etiladi.

### FAOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Саломов Ғ ва бошқалар. Таржимон маҳорати. –Тошкент, «Фан», 1979. – 280 бет.
2. Ғайбуллоҳ ас-Салом . Эзгуликка чоғлан, одамзод. 2-китоб. – Тошкент, «Шарқ », 1997. – 220 бет.

3. Умурзоков Т. Аслиймонанд таржима муаммолари // Жаҳон адабиёти. 2010. №1, 190-195-бетлар.

4. Normamatovich, N. A., & Elmira, J. (2020). Novel thinking and artistic conflict in shoyim butayev's novels. *European journal of molecular & clinical medicine*, 7(3).

5. Nasirov, A. (2012). *Poetics of Odil Yakubov's novels. Monograph. Tashkent, "Fan" publishing house*, 160.

6. Normamatovich, N. A. (2021). Features of Symbolic Interpretation. *International Journal on Orange Technologies*, 3(3), 71-76.

7. Nasirov, A. N. (2019). **STYLISTIC UNITS AND COMPOSITIONAL IMPARTIALITY**. *Theoretical & Applied Science*, (12), 568-571.

8. Левий И. Искусство перевода. Перевод с чеш. и предисловие Вл. Россельса. – Москва, «Прогресс», 1974, стр.

9. Bozorova, G. M., Mamatov, R. R., Adaxamjonov, A. A., & Jaloldinov, M. S. (2024). **THE USE OF INFORMATION TECHNOLOGY IN THE FORMATION OF PROFESSIONAL COMPETENCE OF FOREIGN LANGUAGE TEACHERS**. *Science and innovation*, 3(Special Issue 19), 352-354.

10. Mukhammadaliyeva, B. G. (2023). **THEORETICAL VIEWS ON PROVERB IN GERMAN AND UZBEK**. *International journal of advanced research in education, technology and management*, 2(4).

11. Shavkatovna, T. M. (2023). **BO‘LAJAK PEDAGOG VA PSIXOBO‘LAJAK PEDAGOG VA PSIXOLOGLARDA NUTQ MADANIYATINI RIVOJLANTIRISHDA KOMMUNIKATIV SIFATLARNING O‘RNI LOGLARDA NUTQ MADANIYATINI RIVOJLANTIRISHDA KOMMUNIKATIV SIFATLARNING O‘RNI**. *INTERNATIONAL JOURNAL OF RECENTLY SCIENTIFIC RESEARCHER'S THEORY*, 1(3), 6-8.

12. Shavkatovna, T. M. (2021, June). **THE IMAGE OF A BEAST IN THE WORK OF MY MOTHER**. In *Archive of Conferences* (pp. 22-24).

13. Normamatovich, N. A. (2019). **STYLISTIC UNITS AND COMPOSITIONAL IMPARTIALITY**. *THEORETICAL & APPLIED SCIENCE*, 12(586-571).

14. Nasirov, A. N. (2020). Artistic chronotope interpretation in Odil Yakubov's novels. *Academicia: An International multidisciplinary Research journal ISSN222-49-7137. Impact Faktor SJIF*, 7, 498-501.

15. NASIROV, N. A. (2019). **THE TRANSLATION PROBLEMS OF UTKIR KHOSHIMOV'S WORKS INTO ENGLISH**. *Иностранные языки в Узбекистане*, (3), 133-141.

16. Normamatovich, N. A. (2023). **ARTISTIC THOUGHT IN THE PROCESS OF GLOBALIZATION AND LOGICAL CONSISTENCY**. *INTERNATIONAL JOURNAL OF SOCIAL SCIENCE & INTERDISCIPLINARY RESEARCH ISSN: 2277-3630 Impact factor: 8.036*, 12(01), 90-94.

17. Nasirov, N. A. (2021). The history of literary translation from uzbek into English. *Academic research in educational sciences*, 2(6), 1011-1022.